

**1.** Ko‘p yillik muzloq yerlarni qaysi fan o‘rganadi?

- A) Geomorfologiya
- B) Gidrologiya
- C) Geokriologiya
- D) Glyatsiologiya

**2.** Qanday shartli belgilar yordamida xaritalarning mashtabida ko‘rsatib bo‘lmaydigan voqealarni tasvirlanadi?

- A) maxsus shartli belgilar
- B) mashtabli shartli belgilar
- C) mashtabsiz shartli belgilar
- D) alohida shartli belgilar

**3.** Yer po‘sti kontinental tipining qalinligi qaysi tog‘da 80 km ga boradi?

- A) Himolay
- B) Pomir
- C) Hindikush
- D) And

**4. Matnni o‘qing.**

“Mo‘tadil iqlim mintaqasi katta maydonlarni egallaganligi uchun iqlimi sharoiti turlicha, yog‘in miqdori sharqdan g‘arb tomonga kamayib boradi (1 500 — 1 000 mm). Bu mintaqaga ko‘proq dengiz iqlimi xos”. **Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Yevrosiyo
- B) Janubiy Amerika
- C) Avstraliya
- D) Shimoliy Amerika

**5.** Tirren dengizi qaysi okeanda joylashgan?

- A) Tinch
- B) Atlantika
- C) Hind
- D) Shimoliy Muz

**6. Matnni o‘qing.**

Ushbu okean shimolida subtropik, tropik, subekvatorial, ekvatorial, janubida subekvatorial, tropik, subtropik, mo‘tadil, subantarktika va antarktika iqlim mintaqalari tarkib topgan. Yog‘inlar miqdori qutblar tomon kamayib boradi. Eng kam yog‘in shimoliq‘arbiy qismida kuzatilgan. **Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.**

- A) Hind
- B) Tinch
- C) Atlantika
- D) Shimoliy Muz

**7.** Pampalar Janubiy Amerikaning qaysi tabiat zonasida tarkib topgan?

- A) dasht
- B) savanna
- C) cho‘l
- D) chalacho‘l

**8. Matnni o‘qing.**

“Materikda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar qabul qilingan. Tabiatni muhofaza qilish, uni asrab-avaylash va kelajak avlodga qoldirish maqsadida ko‘plab milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar buniyod etilgan. Materikda birinchi milliy bog‘ 1872- yilda tashkil etilgan. Milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar maydoni bo‘yicha materik dunyoda birinchi o‘rinni egallaydi”. **Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Yevrosiyo
- B) Janubiy Amerika
- C) Shimoliy Amerika
- D) Afrika

**9.** Yel-Viskayno qo‘riqxonasi qayerda joylashgan?

- A) Qoyali tog‘larda
- B) Kaliforniya yarimorolida
- C) Baffin Yeri orolida
- D) Alyaska yarimorolida

**10.** Afrika materigiga oid to‘g‘ri ma’lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Materik, asosan, qadimgi platforma ustida joylashgan bo‘lib, ko‘proq tekislik va yassi tog‘liklardan iborat. Seysmik hududlar nisbatan kam.
- B) Mezozoy erasining oxiriga kelib mustaqil materik tariqasida shakllandi. Materik asosini qadimgi qattiq va mustahkam platforma tashkil etadi. Platformaning mustahkam kristalli zamini materikning shimolida, g‘arbida va markaziy qismlarida yer yuzasiga chiqib yotadi.
- C) Tektonik harakatlar ta’sirida platformaning cho‘kkani joylarida botiqlar va ko‘tarilgan qismlarida yassitog‘liklar tarkib topgan. Yassitog‘liklarda lava — vulqon yotqiziplari ko‘p uchraydi.
- D) Materikdagi tog‘lar kaledon, gersin, mezozoy tog‘ burmalanishlarida ko‘tarilgan. Lekin alp burmalanishida yoshargan. Tekisliklarda, asosan, cho‘kindi tog‘ jinslari uchrasa, tog‘li o‘lkalarda magmatik va metamorfik tog‘ jinslari tarkib topgan.

**11.** O'rta Osiyo hududi qaysi tog' burmalanishi davrida Hind okeanidan to'silib qolgan?

- A) gersin
- B) mezozoy
- C) kaledon
- D) alp

**12. Matnni o'qing.**

"Okrugda tuproqlar uning relyefiga, yotqiziqlariga va yerosti suvlariga bog'liq holda joylashgan. Daryolarning yuqori qayirlarida qadimdan sug'oriladigan bo'z-voha tuproqlari, quyi qayirlarida grunt suvi yuza bo'lgan joylarda biroz sho'rlashgan botqoq-o'tloq tuproqlari uchraydi".

**Matndagi ma'lumotlar qaysi okrugga tegishli ekanligini toping.**

- A) Surxondaryo
- B) O'rta Zarafshon
- C) Farg'ona
- D) Mirzacho'l

**13.** Sangardak va Xo'jaipok qaysi daryoning irmoqlari hisoblanadi?

- A) Surxondaryo
- B) Sheroboddaryo
- C) Qashqadaryo
- D) G'uzordaryo

**14.** "Okrugda "Qizil kitob" ga kirgan katta shalpangquloq, qoplon (gepard), Ustyurt qo'yil kabi hayvonlar yashaydi. Yo'qolib ketayotgan sayg'oqlarni muhofaza qilish maqsadida "Sayg'oqli" buyurtmaxonasi tashkil etilgan". Ushbu ta'rif mamlakatimizdagi qaysi tabiiy geografik okrugga tegishli?

- A) Ustyurt
- B) Qizilqum
- C) Quyi Amudaryo
- D) Mirzacho'l

**15.** Qashqadaryo tabiiy geografik okrugiga oid ma'lumotlar berilgan javobni toping.

A) Okrugning markaziy qismidagi sho'rxok yerlarda pashmak, baliqko'z, seta, sho'ra, yulg'un, qumli yerlarida esa juzg'un, quyonsuyak, saksovul o'sadi. Adirlarda bahorda rang, qo'ng'irbosh, shaytonkavush o'sadi, ular yozda qurib qoladi, so'ngra oq kavrak, oq shuvoq, qizil burgan, chalov o'sishni davom ettiradi.

B) Okrugning 500 – 1200 m balandliklarida qo'ng'irbosh, bug'doyiq, kakra, bo'tako'z, marmarak, sariqchoy, butalardan do'lana, tog'olcha, achchiq bodom uchraydi. 1200—2500 m balandliklarda har xil o'tlar, bodom, do'lana, zirk, archa, yong'oq, zarang, Tyanshan

yeli, qayin, tol, terak, olma, olcha va boshqalar o'sadi.

C) Okrugning 500 metr balandlikkacha bo'lgan qismida cho'l mintaqasiga oid o'simliklardan rang, iloq, qo'ng'irbosh, no'xatak, shuningdek, shuvoq va boshqa o'simliklar o'sadi. Yirik daryo qayirlarida to'qay o'simliklari mavjud. Yerosti suvlari yer betiga yaqin bo'lgan joylarda sho'ralar o'sadi. Okrugning janubiy qismidagi qumloqlarda juzg'un, qum ilog'i, quyonsuyak kabi o'simliklar uchraydi.

D) Okrug adirlarida shuvoq, burg'un, bug'doyiq, kavrak, oqquray, qo'ziqulqoq, qurg'oqchil va toshloq yerlarda bir yillik astragal, chiy kabilar o'sadi. 1500—2500 metr balandliklarda o'tlardan bug'doyiq, shuvoq, tipchoq, jaydar, shirach, daraxtlardan archa, yong'oq, zarang, qayin, tol, terak, bodom, pista, olcha, do'lana o'sadi.

**16. "O'zbekimyomash" zavodi qaysi shaharda joylashgan?**

- A) Toshkent
- B) Chirchiq
- C) Navoiy
- D) Farg'ona

**17.** Iqtisodiy rayon iqlimi keskin kontinental, yozi issiq va quruq. O'simlik o'sadigan davr haroratining yig'indisi shimolda 3000 °C ni, janubda esa 5000 °C ni tashkil etadi. Yog'in nihoyatda kam, yillik yog'in miqdori 100–300 mm xolos. Qor qoplami yupqaligi yaylov chorvachiligiga qo'l keladi". Ushbu ta'rif qaysi iqtisodiy rayonga tegishli?

- A) Quyi Amudaryo
- B) Mirzacho'l
- C) Zarafshon
- D) Janubiy

**18.** Avstraliya ko'mir, suyultirilgan gaz, uran, qora va rangli metallarning katta qismini qaysi davlatga eksport qiladi?

- A) Xitoy
- B) Yaponiya
- C) Hindiston
- D) Koreya Respublikasi

**19. Gana va Tanzaniya Afrika qit'asida qaysi foydali qazilmani qazib olish va eksport qilish hajmi bilan ajralib turadi?**

- A) oltin
- B) uran
- C) platina
- D) olmos

- 20.** Yevropa mamlakatlari ichida aholi soni bo'yicha 4-o'rinda turadi. 2018-yil holatiga ko'ra, aholisi 65 mln. kishidan ortiqdir. Aholining tabiiy ko'payishi juda past, yillik hisobda 0,2 % ga teng. Aholi soni o'sishining muhim manbayi tashqi migratsiya hisoblanadi. Migrantlar ichida Afrikaning turli davlatlaridan ko'chib kelganlar ancha ko'p. Ushbu ta'rif qaysi davlatga tegishli?
- A) Germaniya  
B) Italiya  
C) Buyuk Britaniya  
D) Fransiya
- 21.** Afrikaning qaysi subregioni eksportida o'rmon resurslarining salmog'i katta?
- A) Markaziy Afrika  
B) Janubiy Afrika  
C) G'arbiy Afrika  
D) Sharqiy Afrika
- 22. Matnni o'qing.**  
"Sanoat, asosan, mamlakatning g'arbida yaxshi rivojlangan, ichki hududlar esa agrar iqtisodiyotga ega. Mamlakat meva, yong'oq, uzum, sabzavot, choy, shakarqamish, zaytun, tamaki, paxta yetishtirish bo'yicha jahon miqyosida alohida ajralib turadi. Mamlakat jahonda agrar mahsulotlarining eng yirik eksportyorlaridan biridir".
- Matndagi ma'lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.**
- A) Eron  
B) Turkiya  
C) Hindiston  
D) Xitoy
- 23. Matnni o'qing.**  
"Subregionning umumiyligi maydoni 4,5 mln km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Mintaqada 2 mlrdga yaqin aholi istiqomat qiladi. Uming hududida 7 ta davlat joylashgan. Mintaqada davlatlari orasida bitta monarxiya va oltita respublika tuzumiga ega davlatlar mavjud". **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.**
- A) Sharqiy Osiyo  
B) Janubi-sharqiy Osiyo  
C) Janubiy Osiyo  
D) Janubi-g'arbiy Osiyo
- 24. Buyuk Britaniya sanoatiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.**
- A) Sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga avtomobilsozlik, aviasozlik, qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo va farmasevtika

- sanoatlari kiradi. Elektr energiyasi, asosan, IESlarda ishlab chiqariladi.
- B) Sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga mashinasozlik, kimyo, farmasevtika, ko'mir, qora metallurgiya, oziq-ovqat sanoati kiradi. Mashinasozlik tarmoqlaridan esa stanoksozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika, mikroelektronika, kemasozlik, aviakosmik mashinasozlik kabi tarmoqlari juda yuqori darajada rivojlangan.
- C) Sanoati tarkibida mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya hamda oziq-ovqat sanoatlari yetakchi ahamiyatga ega. Mamlakat avtomobil, kema, samolyot, dastgohlar, mineral o'g'itlar, soda, polimerlar, parfyumeriya va kosmetika, vino, pishloq va boshqa ko'plab mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon bozoriga yetkazishda alohida ajralib turadi.
- D) Sanoatining yetakchi tarmoqlari sifatida mashinasozlik (ayniqsa avtomobilsozlik va maishiy texnika ishlab chiqarish), kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoatlari ajralib turadilar. Mamlakat yengil avtomobil, motosikl, muzlatgich, velosiped, jun gazlamalari, kiyim-kechak, poyabzal, zaytun moyi, pishloq, vino, meva va tomat konservalari kabi mahsulotlarning jahondagi eng ko'zga ko'ringan eksportyorlaridan biridir.
- 25. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi qaysi bosqichda inson eng asosiy «geologik kuch»ga aylandi, regional miqyosdagi geologik muammolar tarkib topdi?**
- A) qishloq xo'jaligi inqilobi  
B) fan-texnika inqilobi  
C) sanoat inqilobi  
D) ekologik munosabatlar
- 26. Mahalliy dinlar orasida qaysi biri e'tiqodchilar soniga ko'ra peshqadamlik qiladi?**
- A) induizm  
B) konfutsiylik  
C) sintoizm  
D) iuadizm
- 27. Insonlarning tarixan shakllangan, yashash hududi, madaniyati, turmush tarzi bilan o'zar farq qiluvchi ijtimoiy guruuhlar nima deb ataladi?**
- A) etnos  
B) qabilalari  
C) elat  
D) millat
- 28. "Zarafshon daryosining yaqinligi, yirik qishloq xo'jalik hududi markazida joylashganligi, transport bilan yaxshi**

ta'minlanganligi shaharning tez o'sish omili bo'ldi. Shahar 1960-yillarda yagona bosh reja asosida issiq iqlim va milliy an'analarni hisobga olib qurildi". Ushbu ta'rif qaysi shaharga tegishli?


- A) Kogon
- B) Navoiy
- C) Kattaqo'rg'on
- D) Zarafshon

**29.** Ushbu yozuv siz xaritada Sargasso va Karib dengizlari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 2, 4
- B) 1, 3
- C) 2, 3
- D) 1, 4

**30.** Ushbu yozuv siz xaritada 2 va 4 raqamlar bilan Janubiy Amerikaning qaysi iqlim mintaqalari egallagan hududlar tasvirlangan?



- A) ekvatorial va tropik
- B) subekvatorial va mo'tadil
- C) ekvatorial va subtropik
- D) subekvatorial va tropik

**31.** O'rta Osiyoning yozuv siz xaritasida Farg'ona va Narat tizmalari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 2, 4
- B) 2, 3
- C) 1, 3
- D) 1, 4

**32.** Ushbu yozuv siz xaritada 2 raqami bilan qaysi tog' tizmasi tasvirlangan?



- A) Boysuntog  
B) Chaqchar  
C) Surxontog  
D) Hisor

33. Materiklarning eng uzun daryolari jadvalida to‘g‘ri berilgan qatorlarni toping.

Nº	Nomi	Uzunligi, km
1	Nil	6531
2	Missisipi	6019
3	Amazonka	6671
4	Murrey	3490

- A) 1, 3  
B) 2, 4  
C) 2, 3  
D) 1, 4

34. Quyidagi jadvalda viloyatlar va ularning maydoni mos ravishda to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.

Nº	Viloyatlar	Variantlar	Maydoni, ming km <sup>2</sup>
1	Samarqand	a	28,6
2	Toshkent	b	20,1
3	Qashqadaryo	c	16,8
4	Surxondaryo	d	15,3


- A) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b  
B) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d  
C) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b  
D) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a

35. Davlatlar va ularning pul birliklari mos ravishda to‘g‘ri berilgan javobni toping.

Nº	Davlatlar	Variantlar	Pul birligi
1	Xitoy	a	Yena
2	Koreya Respublikasi	b	Vona
3	Yaponiya	c	Yuan

- A) 1-c, 2-b, 3-a  
B) 1-a, 2-c, 3-b  
C) 1-b, 2-c, 3-a  
D) 1-c, 2-a, 3-b

36. Agar gorizontallar har 1000 metrdan o‘tkazilgan bo‘lsa, quyidagi chizmada A harfi tasvirlangan relyef shaklini toping.




- A) abissal  
B) batial  
C) shelf  
D) cho’kma

37. 30° sharqiy uzunlikda turgan kuzatuvchi 90° sharqiy uzunlikda joylashgan kuzatuvchidan Quyosh chiqishini necha soat keyin ko‘radi?

- A) 2 soat  
B) 3 soat  
C) 4 soat  
D) 5 soat

38. Quyidagi chizmadan foydalanib, Qo‘qon shahridagi o‘rtacha yillik haroratni aniqlang.



- A) +13,9 °C  
B) +14,2 °C  
C) +13,5 °C  
D) +12,8 °C

**39.** Barometr tog‘ cho‘qqisida 525 mm Hg ni ko‘rsatdi. Tog‘ cho‘qqisining dengiz sathidan balandligini aniqlang.


- A) 2 150 m
- B) 2 950 m
- C) 2 750 m
- D) 2 350 m

**40.** “Baland bo‘yli g‘allagulli o‘simliklar, siyrak o‘rmonlarda daraxtlardan sal (balandligi 30–35 m), tik, akatsiya va palmalar o‘sadi.

Subekvatorial mintaqaga borgan sari savannalarda yog‘ingarchilik miqdori ortib boradi. O‘rmonlar maydoni ham kengayib boradi”. Ushbu ta’rif Yevrosiyoning qaysi tabiat zonasiga tegishli?

- A) tropik savannalar
- B) subtropik chalacho‘llar
- C) subtropik sernam musson o‘rmonlar
- D) subtropik o‘rmonlar va butazorlar

**41.** 2018-yil ma’lumotiga ko‘ra ushbu diagrammaning 2-ustunidagi ko‘rsatkich qaysi viloyatning aholi soniga tegishli ekanligini aniqlang (ming kishi hisobida)?



**42.** “Yalpi sanoat mahsulotining hajmi bo‘yicha jahonda 2-o‘rinda turadi. Sanoatning barcha tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Ayniqsa, aerokosmik sanoat, avtomobilsozlik, elektrotexnika, elektronika, tibbiyot asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, atom mashinasozligi, harbiy-sanoat majmuasi, neft-kimyo sanoati kabi zamонавија texnologiyalarga tayanib rivojlanayotgan sanoat tarmoqlarida jahon miqyosida yetakchiligi yaqqol ko‘zga tashlanadi”. Ushbu ta’rif qaysi davlatga tegishli?

- A) Xitoy
- B) AQSH
- C) Yaponiya
- D) Germaniya

**43.** 2018-yil Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tug‘ilganlar soni 3 105 kishini, vafot etganlar soni 521 kishini tashkil etgan bo‘lsa, aholining tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichi qanchani tashkil etgan?

- A) 2584 kishi
- B) 3626 kishi
- C) 2751 kishi
- D) 2809 kishi

**44.** 2021-yil holatiga ko‘ra, Beruniy tumanining shahar aholisi 68,8 ming kishini, qishloq aholisi 125,7 ming kishini tashkil qildi. Beruniy tumanining urbanizatsiya darajasini toping.

- A) 35,3 %
- B) 38,1 %
- C) 34,6 %
- D) 37,9 %

**45.** 2008-yil qaysi davlatda monarxiyadan voz kechilib, respublika boshqaruv shakliga o‘tildi?

- A) Nepal
- B) Butan
- C) Bruney
- D) Qatar